

ZAMONAVIY JURNALISTIKA: RIVOJLANISH ORTIDAGI MUAMMOLAR

Durdonabonu Musajonova

Fargʻona davlat universiteti 1-kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15622475>

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy jurnalistika rivojlanishi bilan birga yuzaga kelayotgan muammolar chuqur tahlil qilinadi. Sifatli axborot tanqisligi, soxta yangiliklar, jurnalistlar erkinligining cheklanishi, kasbning qadrsizlanishi kabi dolzarb masalalar misollar asosida yoritiladi. Shuningdek, jurnalistika sohasini yanada mustahkamlashga doir tavsiyalar beriladi.

Kalit soʻzlar: Jurnalistika, axborot, feyk yangiliklar, senzura, mustaqillik, media savodxonlik.

Soʻnggi yillarda dunyo jurnalistikasi jadal oʻzgarishlar davrini boshdan kechirmoqda. Raqamli inqilob, ijtimoiy tarmoqlarning keng tarqalishi, blog va vlog kabi yangi formatlarning ommalashuvi anʼanaviy jurnalistikaga qator muammolarni olib keldi. Bugun deyarli har bir fuqaro axborot tarqatuvchiga aylangan bir paytda, jurnalistikaning asosiy vazifasi – aniqlik, xolislik va dolzarblik – sinovdan oʻtmoqda. Bu holat Oʻzbekiston jurnalistikasi oldiga ham yangi masʼuliyatlar va sinovlar qoʻymoqda

1. Tezlik va sifat oʻrtasidagi ziddiyat. Internetda yangilik berish poygasi jurnalistni tezroq yozishga undaydi. Ammo bu holat koʻpincha axborotning aniqligiga putur yetkazadi. Masalan, ijtimoiy tarmoqda tarqalgan biror voqea haqida jurnalist manbani tekshirmay turib eʼlon qilsa, bu nafaqat xatolik, balki jamoatchilik fikrini chalgitishga ham olib keladi.

2. Feyk yangiliklar va axborot xavfsizligi. Soxta yangiliklar (feyklar) tarqalishi dunyo boʻylab jiddiy muammoga aylandi. Feyk kontent siyosiy qarorlar, saylov natijalari, hatto pandemiya chogʻida sogʻliqni saqlash tizimiga ham salbiy taʼsir koʻrsatgan. “Oʻzbekistonda ham feyklarga qarshi kurashish maqsadida turli tashabbuslar yoʻlga qoʻyilgan boʻlsa-da, bu muammo hanuz dolzarb, bu masala yuzasidan insonlar orasida turli nizo va bahslar kelib chiqmoqda, bu kichik bir salbiy jihati sifatida boʻlsa-da, jamiyatga va ijtimoiy hayotga katta zarar keltirmoqda”. [1] Buning oldini olish uchun koʻplab choralar amalga oshirilishi zarur: OAV xodimlari va keng jamoatchilik uchun media savodxonlikni oshirishga qaratilgan treninglar, platformalar soni koʻpaytirilishi kerak, fuqarolarga feyk xabarlar jamiyatda qanday asoratlarga olib kelishi mumkinligi haqida hamda har qanday feyk axborotlarga ishonch bildirmasliklari uchun tushuntirish ishlari olib borilishi lozimdir.

3. Senzura, bosim va jurnalist mustaqilligi. Koʻplab mamlakatlarda, jumladan, baʼzida bizda ham jurnalistlar toʻliq erkin ishlay olmaydi. Tanqidiy maqolalar sababli bosimga uchrash holatlari uchrab turadi. Mustaqillikning cheklanishi esa jamiyatni muammolarni koʻrmaslikka olib keladi. Jurnalistning erkin ijod qila olmasligi uning kasbiy rivojlanishining pasayishi, kasbga boʻlgan muhabbatning yoʻqolishi va bir qancha muammolarga olib keladi.

4. Clickbait va auditoriya uchun kurash. Bugungi OAV aksariyat hollarda klik uchun kurashmoqda. Diqqatni tortuvchi, lekin asossiz sarlavhalar oʻquvchini jalb qilishi mumkin, ammo bu ishonchni yemiradi.

Misol: “Siz bunga ishonmaysiz!” kabi sarlavhalar, aslida, oddiy hodisani haddan tashqari shov-shuvli koʻrsatadi.

5. “Jurnalist kasbining qadrsizlanishi va yosh kadrlar muammosi. Axborotga oson kirish

imkoniyati ko'pchilikni jurnalistikani "har kim qiladigan ish" deb o'ylashga undamoqda".[2] Buning natijasida malakasiz, savodsiz kontent ko'paymoqda. Telekanallar ko'plab ko'rsatuvlarda boshlovchi sifatida turli "Madaniyat xodimlari" (aktyor, aktrisa, blogger, qiziqchi) larning boshlovchi sifatida faoliyat ko'rsatishi orqali faqatgina ko'ngilochar ko'rsatuvlar hamda yengil, saviyasiz tele-shoularning soni ortib bormoqda. Bundan ko'zlangan maqsad, faqatgina audiotiyani jalb qilishdan iborat bo'lib qolmoqda. Ularning ekran orqali muomula madaniyatiga rioya qilmasligi, adabiy til unsurlarini chetlab o'tgan holda ko'rsatuv olib borishlari ommaga qanchalik salbiy ta'sir ko'rsatishi, yosh avlodning tarbiyasida nechog'lik rol o'ynashi haqida kim o'ylab ko'rmoqda.? Va hozir auditoriyaga manfaatli va foydali ma'lumotlar yetkazish keyingi darajaga o'tib qolmoqda.

Yangi jurnalistlar tayyorlash, ularni amaliyotda o'qitish tizimi hali yetarlicha mukammal emas. Jurnalistika ta'limida zamonaviy texnologiyalar, media etikasi, ma'lumotni tekshirish (fact-checking) bo'yicha maxsus kurslar joriy etilishi zarur.

Zamonaviy jurnalistika kuchli raqobat, texnologik bosim va ijtimoiy omillar ostida ishlayotgan bo'lsa-da, uning asl vazifasi – jamiyatga haqiqatni yetkazishdan iboratdir.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Habermas, J. The Structural Transformation of the Public Sphere. MIT Press, 1989.
2. Kovach B., Rosenstiel T. The Elements of Journalism. Three Rivers Press, 2007.
3. O'zbekiston Respublikasi OAV faoliyati to'g'risidagi qonunlar to'plami.
4. "Media va axborot savodxonligi", UNESCO, 2022.
5. "Axborot xavfsizligi va jurnalistika: O'zbekiston misolida". OAV Akademiyasi, Toshkent, 2024.